



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**Shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'рни****Choriyeva Sevara Allanazar qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'рни keng yoritilgan. Muloqot jarayonining shaxsning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, shaxslararo muloqot orqali ijtimoiylashuv, o'zini anglash, empatiya va muloqot madaniyatining shakllanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada muloqotning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib berilib, samarali muloqot shaxs kamolotining muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika va psixologiya sohasida tahsil olayotgan talabalarga, shuningdek, ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Shaxslararo muloqot, shaxs taraqqiyoti, ijtimoiylashuv, psixologik rivojlanish, ma'naviy kamolot, muloqot madaniyati, og'zaki muloqot, og'zaki bo'lmagan muloqot, empatiya, o'zini anglash, Ijtimoiy munosabatlar, axborot almashinuvi, jamoa, ijtimoiy rollar, ruhiy barqarorlik.

Kirish. Shaxsning rivojlanishi muloqotsiz mumkin emas, balki inson o'z fikrlash tarzini, xulq-atvorini va ijtimoiy tajribasini boshqalar bilan muloqot qilish orqali rivojlantira oladi. Ayniqsa, bolalik davrida ota-ona va yaqinlar bilan muloqot bolaning nutqi, tafakkuri va hissiy holatining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxs jamiyat a'zosi sifatida muloqot orqali ijtimoiylashtirib beradi. Oila, maktab, do'stlar va mehnat jamoasidagi muloqot orqali inson jamiyat qoidalari, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Muloqot yetishmasligi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan: shaxsda yolg'izlik, tushkunlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shaxslararo muloqot shaxs taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. U shaxsning aqliy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, har bir inson muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi va sog'lom munosabatlar o'rnatishga intilishi kerak.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot shaxs kamolotining muhim sabablaridan biridir. Ijobiy muloqot muhitida o'quvchilar erkin fikrlaydi, bilimga qiziqishi ortadi va mustaqil shaxs bo'lib shakllanadi. Muloqot madaniyati — bu muloyimlik, hurmat, tinglay bilish va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish qobiliyatidir. Muloqot madaniyati yuqori bo'lgan shaxs: jamoada tez moslasha oladi; nizolarni tinch yo'l bilan hal qila oladi; yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Muloqot jarayonida shaxs: o'zini baholashni o'rganadi; ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni farqlay boshlaydi; jamiyatda o'z o'rnini topadi.





Boshqalarning fikri va munosabati shaxsning xulq-atvori va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shaxslararo muloqot bir necha turga bo'linadi:

Og'zaki muloqot – nutq orqali amalga oshadi, fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Og'zaki bo'lmagan muloqot – imo-ishora, mimika, tana harakati orqali bo'ladi, hissiy holatni anglashga yordam beradi.

Rasmiy muloqot – ish, o'qish jarayonida bo'ladi, mas'uliyat va intizomni shakllantiradi.

Norasmiy muloqot – do'stlar, oila davrasida kechadi, shaxsning erkin va ochiq bo'lishiga xizmat qiladi. Har bir muloqot turi shaxsning turli jihatlarini rivojlantiradi. Inson shaxs sifatida jamiyatda shakllanadi. Jamiyat esa muloqotsiz mavjud bo'la olmaydi. Shaxs o'z fikrini bildirish, boshqalarning fikrini qabul qilish va ularga moslashish orqali rivojlanadi. Muloqot shaxsning ijtimoiy tajribasini oshiradi va uni mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. Pedagogik muloqot asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
4. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Andreeva G.M. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2015.
6. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: Смысл, 2014.
7. Немов Р.С. Психология. Книга 1. – Москва: Владос, 2016.
8. Бодалев А.А. Личность и общение. – Москва: Педагогика, 2013.
9. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 2004.
10. Adler A. Understanding Human Nature. – New York: Oneworld Publications, 2011.

